

So'g'd yozma yodgorliklari tarixiy manba sifatida

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedra II
kurs magistranti Gulasal Shermirzayeva

Annotatsiya

Maqolada So'g'd yozma yodgorliklari haqida ma'lumot berilgan. Ushbu maqola tarixiy manbashunoslik masalalarini o'z ichiga olgan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimov tarixni o'rganishda, tarixchi olimlar avvalo: "... qadimdan hozirgi kunga qadar ilmiy asoslarda o'rganishda birlamchi manbalarni tadqiq etishga katta e'tibor qaratish"¹ lozimligini takidlab o'tgan.

O'zbekiston yaqin tarixi mamlakatimizning XIX asr ikkinchi yarmidagi siyosiy voqealari turli davrlarda va manbalarda turlicha talqin qilinmoqda. O'z davridagi yozma yodgorliklar, hujjatlar, tarixiy solnomalarda ular qanday bayon qilingan edi? Sho'ro davrida qanday tushuntirildi? Mustaqillik sharoitida nihoyat tarixiy adolatni tiklash, manbalar asosida bo'lib o'tgan voqealarni bilishimiz mumkin va kerak. Bu esa manbashunosliksiz mumkin emas. Chunki o'sha davr yozma yodgorliklari arab alifbosi asosidagi yozuvimizda bitilgan va o'sha davrga xos tarixiy xususiyatlarga ega.

Manbashunoslik yurtimiz to'grisida xolis va ob'ektiv bilim olishga, o'zligimizni anglashga, tariximizni bilishga xizmat qiluvchi muhim fan sohasi bo'lib, turli (moddiy, etnografik, yozma va boshqa) manbalarni o'rganish hamda ulardan ilmiy foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganadi.

Tarixiy manba nima? Tarixiy manba deganda uzoq o'tmishdan qolgan, tabiat va jamiyatning ma'lum bosqichidagi kechmishini o'zida aks ettirgan moddiy va manaviy yodgorliklarni tushunamiz.

¹Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. // Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. - T.: O'zbekiston, 7-jild. - b.132

Bularga moddiy yodgorliklar - qadimiy obidalar, manzilgoh va mozorlar, shahar, qasr va qal'a xarobalari, ro'zg'or buyumlari va b. kiradi. Ma'naviy yodgorliklarga qadimgi yozuvlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, afsonalar, yozma yodgorliklar - bitik, qo'lyozma kitob, hujjatlar va arxiv materiallari kiradi

Vatanimiz tarixini o'rganishda so'g'd yozma yodgorliklari alohida ahamiyatga ega.

Bizga ma'lumki, So'g'd yozuvi mil. avv. III-II asrlarda shakllangan. Lekin milodning dastlabki davrlariga oid So'g'd manbalari kam saqlanib qolgan². Buning asosiy sababi, arablar istilosidir. Arablar Markaziy Osiyoni bosib olganlaridan keyin bu yerdagi turli narsalarga yozilgan yozuvlarni beavov yo'q qildilar³. Istilo natijasi Markaziy Osiyo xalqlari orasidagi til munosabatlariga ham ta'sir qildi. Arab va fors tili shahar madaniyat tiliga aylana bordi. Bu esa so'g'd tilining amaliy doirasini toraytira boshladi. Buning ustiga turk tilning tobora keng yoyilishi so'g'd tilining mavqeini yanada cheklab qo'ydi. Muhammad Narshaxiyning «Tarixi Buxoro» asaridan ma'lum bo'lishicha, X asrda so'g'd tili faqat qishloq tumanlaridagina saqlanib qolgan edi. Shuning uchun so'g'd tilida yozilgan manbalar kam saqlanib qolgan⁴.

XX asrda So'g'd manbalariga qiziqish kuchayadi. Asosan chet el olimlari So'g'd manbalarini topishga harakat qilishgan. 1889-yili N.I. Yadrintsev tomonidan O'rxun daryosi xavzasidagi Qorabolg'asun degan yerdan topilgan uch xil yozuvli tosh lavxadagi uchinchi yozuv so'g'd tilida - «So'g'd yozuvi» deb ataladigan yozuvda bitilganini aniqladi. Qizig'i shundaki, so'g'd tilida bitilgan dastlabki epigrafik yodgorliklar faqat So'g'd xududidan tashqarida topilgan. XX asr 30-yillarigacha So'g'd xududidan birorta ham yozuv topilmagan. Umuman so'g'd tilidagi manbalar IV-IX asrlarga oid bo'lib turli mazmundagi yuridik xujjatlar (ahdnomalar, nikoh haqidagi shartnomalar, oldi-sotdi xujjatlari, tilxatlar)

² Мансуров Ў.Н. Сўғд ёзма ёдгорликлари манбашунослиги масалалари. Т.: 2003

³ Шоякубов Ш.Ш. VI-VIII асрлар Марказий Осиё сиёсий тарихида Сўғд (сўғд ёзма ёдгорликлари асосида). тарих фан ном. Т.: 2011.

⁴ Наршахий, Мухаммад. Бухоро тарихи. ...

xukmdorlar o`rtasidagi yozishmalar, kundalik turmushga oid xujjatlar hamda farmonlardan iboratdir.

Bu xujjatlar So`g`diyonaning o`zida (Mug` qal`asidan), Samarqandda (Afrosiyobdan), Qirg`iziston va Sharqiy Turkistondan topilgan.

1961-1965 yillarda O`zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va Arxeologiya instituti ekspeditsiyasi Afrosiyobda V-VII asrga oid saroy harobalarini ochdilar. Saroy mehmonxonasi devorlari turli mazmundagi rasmlar bilan bezatilgan bo`lib ular orasida oq kiyim kiygan Chag`oniyon elchisining surati ham bor. Uning etagida so`g`d tilida 16 satrdan iborat ishonch yorlig`i ham yozib qo`yilgan⁵.

Muhim xujjatlar So`g`diylarning Qozog`iston, Qirg`iziston hamda Sharqiy Turkistondagi savdo koloniyalarida ham topilgan⁶. Bular orasida ayniqsa, 1902-1906 yillarda A.Steyn boshliq ingliz ekspeditsiyasi topgan epigrafik yodgorliklar mashhurdir. Bu ekspeditsiya Xitoyning G`arbiy tumanlarida - Dunxuan nomli manzilida qazuv ishlarini olib borib, yuzlab xitoycha, turkcha va boshqa xat xujjatlari orasida so`g`d yozuvi bilan bitilgan nodir qo`lyozmalar ham topishga muvaffaq bo`ldi. Talas daryosining o`ng sohilida, hozirgi Talas shaxrida 7-8 km shimolda joylashgan Kulunsoy hamda Teraksoy daralarida qoyatoshlarga o`yib bitilgan yozuvlar alohida e`tiborga ega. Bu yozuvlar IV-XI asrlarda So`g`d kasabalaridagi ahvol haqida, Markaziy Osiyo bilan Sharq mamlakatlari orasidagi savdo aloqalari va bunda So`g`diylarning ro`li haqida qimmatli ma`lumotlarni beradi.

Dunxuan va Xo`ton xujjatlari A. Steyn, Talasdan topilgan yozuvlar esa V.A. Kamaur, M.E. Masson, D.F. Vinnik, A.Asanaliev, U. Jumagulovlar tarafidan o`rganilgan.

So`g`d yozma yodgorliklari ham yozuv alifbo turlari, ularda aks etgan diniy dunyoqarash mazmuni bo`yicha turlichadir. Masalan, budda diniy marosimlari aks

⁵ Шоякубов Ш.Ш. VI-VIII асрлар Марказий Осиё сийёсий тарихида Сўғд (сўғд ёзма ёдгорликлари асосида). - тарих фанлари номзоди.дисс. - Т., 2011. – Б. 79

⁶ Абдуқаюмов А.Р. Сўғднинг илк ўрта асрлар даври хунармандчилиги ва савдо иқтисодий алоқалари. тарих фан ном. Т.: 2011

etgan yozma yodgorliklarning aksariyati «Samarqand yozuvi» yoki «So`g`d milliy yozuvi» nomi bilan yuritiladigan yozuvda bitilgan. Kushonlar imperiyasida (milodiy I-II asrlar) oid tangalardagi yozuvlar ham So`g`dcha bo`lgan.

Mug` tog`idan topilgan So`g`d arxivi xujjatlari va ularning mazmuni. 1932-yilning bahorida Tojikistonning Zaxmatobod tumanida (hozirgi Ayniy) Xayrobod qishlog`i yaqinidagi Qolgan Mug` nomli tepalik yonbag`rida cho`pon Jo`rali Mahmudali o`g`li qo`ylarni o`tlatib yurganida, qal`adan noma`lum yozuvda bitilgan xatni topib oladi. Cho`pon qishloqqa qaytgach xatni mahalliy savodxon kishilarga ko`rsatadi. Lekin xatni hech kim o`qiy olmaydi.

Voqeadan xabardor bo`lgan Zahmatobod tumani partiya rahbari A. Pulodiy - xatni Dushanbe shahriga jo`natadi. U yerda xatni FA Tojikiston bazasining ilmiy kotibi A. Ivasilev ko`radi. Undan fotonusxa olib qo`lyozmani maxsus xatjildda Leningrad (hozirgi Sank-Peterburg) shahridagi Sharqshunoslik institutiga - so`g`d yozuvidan xabardor olim A.A.Frey manga jo`natadi⁷.

Shu yili kuzda Mug`da qazish ishlari boshlab yuborildi. Qazishmalar natijasida 400 ga yaqin ashyoviy dalillar topildi, qal`a arxitekturasini o`rganib izoxlandi, avval topilganlari bilan birga 80 dona yozma yodgorlik tekstlari qo`lga kiritildi. Ulardan 74 tasi so`g`dcha, 2 tasi arabcha, bittasi turkiy bo`lib fan uchun benixoya qimmatbaxo ma`lumotlarni beradi.

Bu yerdan topilgan so`g`d yozuvi yodgorliklari uchun ishlatilgan materiallar yozuv taraqqiyotini o`rganishda muhim ob`ektdir. So`g`d yozuvi va Markaziy Osiyo yozuvlarining eng qadimiylari metall predmetlari yuzasidan bizgacha yetib kelgan. Ularda xatning shakli eng sodda turlaridan tortib, yuksak kursiv husnixat shakligacha mavjud. So`g`d yozuvining keyingi namunalari ko`pincha ipakdek nafis va pishiq «xitoy» qog`oziga bitilgan. Bundan tashqari Samarqand qog`ozi ham keng tarqalgan bo`lib, lekin tadqiqotchilar fikricha VII-VIII asrlarda bu yerda qog`oz ishlab chiqarish qiyin bo`lganligi uchun qog`oz yetishmagan va juda

⁷ Мансуров Ў.Н. Сўғд ёзма ёдгорликлари манбашунослиги масалалари. Т.: 2003

qimmat turgan. Shu sababli ko`pincha xo`jalik xisobi ishlarida kundalik extiyojlar uchun qog`oz bilan bir qatorda yog`och ham keng qo`llanilgan. Yog`och - toldan yasalgan tayoqchalar bo`lib (uzunligi 0,5m va undan ortiq) ularning po`stlog`i shilingan, ko`pincha uzunasiga ikkiga bo`lib ishlatilgan. Yog`ochning bo`rtik va tekis yuzalariga yozilavergan. Mug` xujjatlarining 30 ga yaqini shu kabi tol yog`ochlariga yozilgan.

Xujjatlarning bir qanchasi esa charmga yozilgan. Ularning saqlanish darajasi har xil. Bulardan tashqari so`g`d yozuvining qator namunalari sopol parchalarida, idishlarning sirtida, toshda yetib kelganki ularning tarixiy va madaniy jixatidan ahamiyati beqiyosdir.

Mug`dan topilgan epigrafik yodgorliklar o`sha paytda So`g`dning xo`jalik ishlari, bir qator yuridik xujjatlar, arab noibining xatlari, Devashtich qo`zg`oloni haqidadir.

Bizga ma`lumki, Devashtich qo`zg`oloni bostirilgach, dastlab u avf etildi, keyinchalik Arbinjon degan yerda 722 milodiy yilda dorga osib o`ldiriladi. Bu haqda so`g`d yozuvidagi ma`lumotlar olimlar tomonidan o`qilgan va nashr qilingan bo`lib, juda yomon, charmning ko`p yerini qurt yegan, chirigan, yozuvlari bir qadar o`chib ketgan holda saqlangan. Bular orasida Devashtichning milodiy 710-718-yillarda arab xalifasi noibiga yozgan maxsus xati bo`lgan. Unda 710-yilda G`urak tomonidan taxtdan chetlatilgan, o`zini o`ldirgan So`g`d podshosi Tarxunning bolalariga homiy bo`lishni noibdan iltimos qilingan edi. Bu hol arab istilosi davrida So`g`dda taxt uchun kurash ham davom etganini ko`rsatsa ajab emas. Aslida Devashtich Tarxunning ikki o`g`liga homiy bo`lgan va taxtning vorisi deb ana shu ikki bolani bilgan. Shuning uchun 710-yildan boshlab So`g`d podshosi hisoblangan Tarxunning akasi G`urakning hayot bo`lishiga qaramay Devashtich ham o`zini Panjikent hokimi, So`g`d podshosi deb e`lon qilgan. Arablar siyosati natijasida, ko`pchilik zodagonlar arablar tomoniga o`tgan. So`g`d podshosi G`urak ham Devashtichning taxtga da`vosidan va xalq orasida boshlangan qo`zg`olondan qo`rqib arablar tomoniga o`tib ketgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, so'g'd yozma yodgorliklari yurtimiz tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanib, qadimgi davlatlar, ularning boshqaruv tizimi, qo'shni davlatlar bilan aloqalari, ajdodlarimiz hayoti, turmush tarzi, xo'jalik hayoti to'g'risida qimmatli ma'lumotlar saqlangan. Ularni o'rganish va kelajak avlodga yetkazish hozirgi yoshlarning burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.// Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.-T.: O'zbekiston, 7-jild.-b.132
2. Мансуров Ў.Н. Сўғд ёзма ёдгорликлари манбашунослиги масалалари. - тарих фанлари номзоди.дисс. - Т., 2011. – Б. 137
3. Наршахий, Мухаммад. Бухоро тарихи. ...
4. Шоякубов Ш.Ш. VI-VIII асрлар Марказий Осиё сиёсий тарихида Сўғд (сўғд ёзма ёдгорликлари асосида). - тарих фанлари номзоди.дисс. - Т., 2011. – Б. 79
5. Абдуқаюмов А.Р. Сўғднинг илк ўрта асрлар даври ҳунармандчилиги ва савдо иқтисодий алоқалари. - тарих фанлари номзоди.дисс. - Т., 2011.